

XATAKILAR SHEVASIDAGI AYRIM SO‘ZLARNING LEKSIK XUSUSIYATLARI

Eshanqulov Dilmurod,

*O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti,
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi
Toshkent, O‘zbekiston*

E-mail: dilmurodeshanqulov109@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18925782>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xatakilar shevasining qaysi shevaga mansubligi aniqlangan. Shevaning o‘ziga xos fonetik, leksik-semantik xususiyatlari haqida fikr yuritilgan. Shevaga xos ayrim so‘zlarning izohi berilgan.

Kalit so‘zlar: sheva, qarluq, chigil, yag‘mo, xatak, leksika, lahja.

Abstract. This article identifies the dialect to which the Khataki dialect belongs. It discusses the specific phonetic, lexical and semantic features of the dialect. It provides an explanation of some words specific to the dialect.

Keywords: dialect, karluk, chigil, yag‘mo, xatak, lexicon, dialect.

Аннотация. В данной статье определяется диалект, к которому относится хатакиский диалект. Рассматриваются специфические фонетические, лексические и семантические особенности диалекта. Приводится объяснение некоторых слов, характерных для этого диалекта.

Ключевые слова: диалект, карлук, чигил, ягмо, лексикон, диалект.

Kirish. Kelib chiqishiga ko‘ra, turkiy tillar guruhiga kiradigan o‘zbek tili o‘zining tarixiy rivojlanish jarayonida qadimgi xorazmiy, so‘g‘diy, boxtar, turk, mo‘g‘il, fors hamda arab tillari bilan boyib brogan.

Shunga ko‘ra, hozirgi o‘zbek shevalarida arab, fors, mo‘g‘il, rus va boshqa tillardan o‘zlashtirilgan so‘zlar uchrashi tasodif emas.

A.K.Borovkov 1940-yilda yozilgan “Yangi o‘zbek alfaviti haqida” nomli asarida o‘zbek shevalarini, asosan, fonetik jihatdan tahlil qilgan. Uning tasnifiga muvofiq o‘zbek shevalari ikki katta guruhga: 1) o lanuvchi o‘zbek shevalari; 2) a lanuvchi o‘zbek shevalariga bo‘linadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. V.V.Reshetov o‘z asarlarida ko‘proq qoraxoniylar davriga e‘tibor bergan. Chunki qoraxoniylar davrida yashagan qarluq, chigil, yag‘mo singari qabilalar o‘zbek xalqining tarixida muhim ro‘l o‘ynagan. Olimning tasnifi bo‘yicha, o‘zbek shevalari quyidagicha nomlanadi:

1. Shimoliy-g‘arbiy guruhga o‘zbek tilining qipchoq lahjasi, unga chegaradosh, yondosh qozoq, qirg‘iz va qoraqolpoq tillari kiradi.
2. Janubiy-g‘arbiy guruh o‘zbek tilining o‘g‘uz lahjasini o‘z ichiga oladi.
3. Janubiy-sharqiy guruh qarluq-chigil-uyg‘ur lahjasini o‘z ichiga oladi. Unga hozirgi o‘zbek adabiy tili va eski o‘zbek tili, qardosh turkiy tillardan uyg‘ur tili kiradi. Mazkur

lahjaga kiruvchi shevalarning ko'pchiligi uchun shu narsa xoski, ular tojik tili bilan juda qadimdan aloqadordir. [Rajabov N.1996, 81-82-b.]

Fonetik xususiyatlariga ko'ra, qarluq-chigil-uyg'ur lahjasi "y" lashgan shevalardandir. Shahar shevalari va ularning zamini bilan yondosh bo'lgan qishloq shevalari "y" lashgan guruhlariga mansub.

Tadqiqot metodologiyasi. Xatakilarning lahjasi qarluq-chigil-uyg'ur lahjasiga tegishli bo'lib, "a" lanuvchi o'zbek shevalari guruhiga kiradi. Uning asosiy belgisi so'z boshida "o" unlisi o'rniga "a" unlisi ishlatiladi. Masalan: *aldin-oldin, aral-orol, alma-olma* va hokazo. Yana bir xususiyati "f" undoshi o'rniga "p" yoki "v" undoshining ishlatilishidir. Masalan: *zaiifa-zaipa, kofir-kopir, farzand-parzand, qulf-qulp, foytun-poytun, shafyor-shopir, afg'on-avg'on* va hokazo. Xatakilar yashagan qishloqlarning shevasi ma'lum darajada farqlanadi. Masalan, xo'janqoliklar so'zlarni cho'zib aytishadi. Tangidevon va Xatak qishloqlari aholisi muhim karvon yo'llari ustida joylashganligidan boshqa shevalarning ta'sirida so'zlarni nisbatan qisqaroq talaffuz qilishadi. Xatakilar shevasi o'rganilganda hozirgi o'zbek tilidagi so'zlar bilan birga, qadimgi turk, eroniy, arab, fors-tojik tillaridagi so'zlarni uchratish mumkin. Xatakilar shevasida uchraydigan ayrim so'zlarning leksik xususiyatlari.

Tahlil va natijalar.

avro'p (sheva.) – devor tagidan o'tuvchi ariq;

adi (sheva.) – nazar, diqqat-e'tibor;

ajillash (turk) – ko'p gapirish, be'mani so'zlarni aytish; ajillama- ko'p gapirma. Bu so'z, ayniqsa, ichib, mast holatda ko'p gapiradigan insonlarga nisbatan ishlatiladi.

alog'da (turk. sheva.) – xavotir olmoq, notinch bo'lmoq. Bolam, sendan alog'da bo'ldim – bolam, sendan xavotir oldim.

aldinga o'lay (sheva.) – oldingda o'lay; erkalash, hurmat ma'nosida ishlatiladi. Boshqa shevalarda *o'lib qolay, o'lay, aylanay, o'rgulay* kabi so'zlar ishlatiladi. Laylaganlik ayollar xatakilar ta'sirida shu so'zni o'zlashtirib olishgan. Xatakilarning deyarli barchasi shu so'zni ishlatishadi.

aparqon (sheva.) – chalqancha;

araqi-jamil (sheva.) – aralashib qolgan; tartibsizlik holatlarida shu so'z ishlatiladi.

askarcha (ar.) – ayollarning yengsiz, kalta nimchasi;

qoh (sheva.) – 1. Toshda suv to'planadigan joy. Yomg'ir va qor suvi bilan to'lib, haftalab, oylab turadi. 2. Tosh yorilib, suv chiqqan joy. Qadimgi turk tilidagi *qaq* – yomg'ir va sel suvidan paydo bo'lgan ko'l [Qoshg'ari Mahmud.1961, 2-jild, 327-b.]. *qaq suv* – to'plangan suv [Qoshg'ari Mahmud.1963, 3-jild, 169-b.]

qadav (sheva.) – qator (sanoq) ma'nosida. Bu haqda xalq naqli ham bor:

Qorning suvi qaynab chiqar Tangidan,

Jon qutilmas Azroilning changidan.

Jon qutilsa Azroilning changidan,

Qadov-qadov (qator) qolmasmidi qaridan. [Anorov J.1998, 13-b.]

Ya'ni, qadov-qadov qolmasmidi qaridan – qariyalar qatoridan biror kishi qolmasmidi degan ma'noda aytilmoqda.

tani, taxti (sheva.) – hech qachon, also. *Bu gazada o't tani ko'karmaydi – bu adirda o't umuman chiqmaydi. Paqir umridan taxti jal ko'rmadi – bechora umrida hech huzur ko'rmadi.*

taraka (sheva.) – chiqit. *Tarakaga qo'shilgur- chiqitga qo'shilgur (koyish ma'nosida).*

tobin (sheva.) – qarashli, egalik ma'nosida. *Bu yer menga tobin – bu yer menga tegishli.*

tulum (sheva.) – echki terisidan tayyorlangan mesh, to'rva. Agar unga qatiq ivitilib alqor solinsa, qatiq juda ham mazali bo'ladi.

tulup (sheva.) – qo'y qornidan maxsus tayyorlangan xalta. Unda sarimoy saqlashadi.

o'ray (sheva.) – qaysar, o'jar. *Jiyanim xiyla o'raygina – jiyanim biroz qaysarroq.*

o'roz (sheva.) – aqlli, dono, zukko, omadli; xalq maqolida shunday deyiladi.

g'avza (sheva.) – bir siqimga sig'adigan o't, bog'. *Bir g'avza bug'doy o'rdim.*

g'o'la (sheva.) – o'tinning pechga moslab kesilgan qismi ya'ni kundasi.

hayat (sheva.) – uy, tomorqa. *Buvamning hayati qishloqning adog'ida joylashgan – bobomning uyi qishloqning oxirida joylashgan.*

hayek (sheva.) – ha (tasdiqlash ma'nosida);

hazir (sheva.) – ehtiyot bo'lish. *Hazir bo'l – ehtiyot bo'l.*

xilmak (sheva.) – ilashib qoladigan ip, xas va shunga o'xshash narsalar;

xin (sheva.) – 1. Shinni solinadigan idish. 2. Vaqt ma'nosida: *o'sha xinda – o'sha vaqtda.*

xundi (f-t.) – yakka o'zi ovqatlanadigan, yuradigan kishiga nisbatan aytiladi;

chavra (sheva.) – har xil dorivor g'iyohlar o'sadigan adir. Xalq og'zaki ijodida shunday deyiladi:

Chavrasida ko'p o'sar

Andizu qo'ziquloq.

Bahri dilingni ochar,

Borsang agar unga boq. [Olloqul bobo Qurbonovdan yozib olingan.]

chalpas (sheva.) – noshud, sonsiz;

chapan (sheva.) – o'tib bo'lmas joy;

chapani (sheva.) – o'jar, qaysar, o'z bilganidan qolmaydigan odam;

charmak (sheva.) – kavush tikish uchun ishlatiladigan charm;

chimchirg'ay (sheva.) - echki qilidan tayyorlanadigan ip;

chiyilli (sheva.) – kambag'al, dangasa, tanbal, omadsiz. Qadimgi turk tilida "čig'ăž" – kambag'al. [Qoshg'ariy Mahmud. 1963, 3-jild, 257-b.]

chig'ana (sheva.) – o'rilgan bug'doy bog'ini daladan xirmonga tashiydigan yog'ochdan tayyorlanadigan moslam"Xatakilar shevasidagi ayrim so'zlarning leksik xususiyatlari" mavzusidagi maqola uchun batafsil xulosa quyidagicha bo'lishi mumkin.

Xulosa va takliflar. Xatakilar shevasidagi ayrim soʻzlar oʻziga xos leksik xususiyatlarga ega boʻlib, bu shevaning madaniy va tarixiy ildizlarini aks ettiradi. Ushbu soʻzlar nafaqat hududiy talaffuz va shakl jihatdan, balki ularning maʼnosi, ishlatilish doirasi va qiyofasi bilan ham oʻziga xosdir. Xatakilar shevasining leksikasi oʻrta formatdagi oʻzbek tilining umumiy lugʻatiga nisbatan boy va rang-barang boʻlib, u yerda boshqa shevalarda uchramaydigan, faqat mahalliy aholi tomonidan ishlatiladigan dialektal soʻz va iboralar mavjud. Bu hududiy leksikaning oʻzaro muloqotda muhim rol oʻynashi hamda xalqqa xos madaniy merosni saqlashga xizmat qilishi aniqlandi.

Shuningdek, maqolada taʼkidlanganidek, ushbu soʻzlarning baʼzilari zamonaviy oʻzbek tilida kam qoʻllanilishi yoki butunlay yoʻqolib borishi xavfi mavjud, bu esa sheva tatbiqining saqlanishiga eʼtibor qaratish zaruratini koʻrsatadi. Xatakilar shevasi leksik jihatdan oʻzaro bogʻliq va hududiy sharoitlar, tarixiy voqealar, ijtimoiy hayot tarixining taʼsiri ostida shakllangan. Shu sababli, ushbu leksik birliklarni oʻrganish va tarjima qilish tilshunoslikda, ayniqsa dialektologiya va leksikografiyada muhim ahamiyatga ega.

Xatakilar shevasidagi leksik xususiyatlarni chuqur oʻrganish nafaqat shevaning oʻziga xosligini aniqlashga, balki butun oʻzbek tilining dialektologik rang-barangligini anglashga yordam beradi. Bu esa tilni saqlash va rivojlantirish, madaniy merosni asrash borasida muhim ilmiy asos yaratadi. Kelajakda sheva soʻzlarining lugʻatlarini yaratish, ularni zamonaviy til bilan taqqoslash va mintaqaviy soʻz boyligini keng jamoatchilikka yetkazish maqsadida tadqiqotlar davom ettirilishi lozim. Shu bilan birga, sheva leksikasining oʻziga xos xususiyatlari oʻquv dasturlariga kiritilishi va yosh avlodga anʼanaviy til qadriyatlarini yetkazishda qoʻllanilishi zarur.

Umuman olganda, Xatakilar shevasining leksik xususiyatlari nafaqat lugʻat tarkibi va soʻz ishlatilishiga doir, balki bu hududning madaniyatini, tarixini va xalqning dunyoqarashini aks ettiruvchi boy til merosidir. Ularni saqlab qolish va oʻrganish tilshunoslik sohasida katta ahamiyatga ega boʻlib, milliy tilimizning yanada boyib, rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Umarov I., Rahmonov H., Xudoyberdiyev E. Surxon vohasida etnik tarix va etnomadaniy jarayonlar. -Toshkent, Oʻzbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2014.
2. Rajabov N. Oʻzbek shevashunosligi. - Toshkent, 1996, 81-82-b.
3. Qoshgʻari Mahmud. Devonu lugʻotit turk. -Toshkent, 1961, 2-jild, 327-b.
4. Qoshgʻari Mahmud. Devonu lugʻotit turk. -Toshkent, 1963, 3-jild, 169-b.
5. Anorov J. Tangidara qaldirgʻochi. Toshkent, 1998, 13-b.
6. Qoshgʻari Mahmud. Devonu lugʻotit turk. -Toshkent, 1963, 3-jild, 257-b.
7. Ashirboyev S. *Oʻzbek dialektologiyasi // darslik //* -T.: “Navroʻz” nashr.,2016.
8. Abduraxmanov D. *Oʻzbek shevalari leksikasi.* -Toshkent: Fan, 1991.